



Mavzu: Oybekning “Navoiy” romani (1905–1968)

**O‘qituvchi:
Abdukadirova M.M.**






Yangi mavzu bayoni



Muso Toshmuhammad
o‘g‘li Oybek





1905-yil 10-yanvar kuni
Toshkent shahrida **bo‘zchi**
oilasida tug‘ilgan.

Avval mактабда, keyin
педагогика техникумida
o‘qigan.



1-SHE'RI VA 1-TO`PLAMI

- 1-she'ri 1922-yil yozilgan bo‘lib, nomi – “Cholg‘u tovushi”.
- «Tuyg‘ular» 1-she’riy to‘plami bo‘lib, 1926-yilda chop etilgan.



DOSTONLARI



1931-yil «Dilbar - davr qizi» ;

1932-yil «O‘ch» ;

1933-yil «Baxtigul va Sog‘indiq»



MASHHUR ROMANLARI



- «Qutlug‘ qon»;
- «Navoiy»;
- «Quyosh qoraymas».



HIKOYALARI



- «Fanorchi ota»;
- «Musicha»;
- «Singan umid»;
- «Tillatopar»;
- «Gulnor opa».





ESLAB QOLING!

- 10 jildlik asarlar to‘plami
1968-yilda chop etilgan;
 - 1975-85-yillarda esa
“Mukammal asarlar” to‘plami
 - 20 jildda nashr etildi.



MOHIR TARJIMON

- “Yevgeniy Onegin” she’riy roman (Pushkin);
- “Faust” asaridan parcha (Gyote);
- “Kain” asaridan parcha (Bayron);
- “Ilohiy komediya ” asaridan parcha (Dante);
- “Maskarad” dramasi (Lermontov)
- “Tartyuf” dramasi (Molyer)





MASH'UM KUN

- 1951-yil 16-aprel –
Oybek insult kasaliga
chalindi.





ZARIFA SAIDNOSIROVA XOTIRALARI

- "1968-yilning 1-iyulida, oltmis uch yoshida Oybek vafot etdi. Men hayotimning birdan-bir ma'nosi bo'lgan ulug' insondan judo bo`ldim. Men hozir Oybekning o`lim oldi kunlarini yozishga qanchalik shaylanmay, qo'lim titrab, nafasim tiqilib qolmoqda. Qulog'imda hali ham: "Men o`lyapman, Zarifa, rozi bo'l!"— degan so'zlari jaranglab turibdi".



OYBEK LIRIKASIDAN

Namunalar



NA'MATAK

Nafis chayqaladi bir tup na'matak
Yuksakda, shamolning belanchagida.
Quyoshga ko'tarib bir savat oq gul,
Viqor-la o'shshaygan qoya labida
Nafis chayqaladi bir tup na'matak...
Mayin raqsiga hech qoniqmas ko'ngil,
Vahshiy toshlarga ham u berar fusun.
So'nmaydi yuzida yorqin tabassum....



TOG' SAYRI



*Axtarib topganimda o'n ikki buloq,
Qalbimda o'n ikki she'r bordan jo'sh urdi.
Hammasi shivirlaydi sizdek shan, inoq,
Ko'ksimga naq o'n ikki bahor yugurdi.*

*Porloq va shan o'n ikki ko'zning ishqida
Ko'zlarim xiyla zamon adashib qoldi.
Sevinch qaynar, jildirar sof kumushida,
O'n ikki qiz izidan xayol yo'l soldi...*



Bilib oling!

- Oybek dastlab Navoiy haqida ilmiy maqolalar, keyin “Navoiy” lirik dostonini (1936-1937) va nihoyat 1942-yilda “Navoiy” romanini yozadi.
- Bu asar haqida muallif yana quyidagi fikrlarni aytgan: “*Yozishdan avval men qahramonlarimni aniq-tayin ko`rganman, ular, mening xayolimda, bir paytlar tarix shudgoriga tashlangan urug`dan o`sib chiqqandek edilar*”.

Ushbu roman buyuk mutafakkir shoir haqida dunyo adabiyotida yaratilgan ilk yirik nasriy asar edi. Bu romanga qadar Oybek Navoiy haqida she'r, doston va bir qator ilmiy maqolalar yaratgan edi. Yirik badiiy asarda daho ijodkorning shaxsiyati, ruhiyat dunyosi, ichki olami, ijod va ijodkorlarga munosabati butun serqirraligi bilan ko'rsatib berildi.

Yozuvchi faqat buyuk Alisher Navoiyning ijodi va shaxsiyatining emas, balki u yashagan tarixiy davr, ijtimoiy-siyosiy sharoit hamda u bilan muloqotda bo'lgan shaxslarni ham puxta o'rganib chiqqan. Shuning uchun romanda daho ijodkor el-ulus hayotidan uzilmagan holda jamiyatdagi kattakichik voqealar tasvirida ishonarli va hayotiy aks ettirilgan.





Asarda Navoiy shaxsiyatiga xos porloq jihatlar bor bo'yicha aks ettirilgani ko'zga tashlanadi. Shoirning ona tili mavqeyi uchun kurash yo'lida tinim bilmasligi, odamlarga beg'araz yaxshilik qilishga hamisha tayyor ekani, doim el-yurt manfaatini o'ylashi singari jihatlar g'oyat ta'sirli aks ettirilgan.

Shuningdek, asarda buyuk shoirning tadbirkor, siyosiy arbob, uzoqni ko'ra oluvchi donishmand, har qanday holatda ham e'tiqodiga xiyonat qilmaydigan iymoni mustahkam shaxs ekani yorqin tasvirlangan. Shoirning harbiy ishlar sohasida ko'p sarkardalar, hatto, umri jang-u jadallar ichida o'tgan Husayn Boyqaroga nisbatan ham bilgilik qilishi asarda mahorat bilan jonli misollar asosida hayotiy ifoda qilingan. Alisher Navoiy hazratlarining dovyurak, tadbirkor, o'rni kelsa, xavf-u xatarga tik qaray biladigan shaxs ekani uning Yodgor Mirzo qarorgohiga yolg'iz borishga jazm qilganida yaqqol ko'zga tashlanadi.



Navoiy obrazi



Asarda shoirning o‘z qadrini biladigan, ayni vaqtda o‘ta kamtar odam ekanligi lavozimdon odam sifatida ilk muhr bosish holati tasvirlangan lavhada yorqin namoyon bo‘ladi. Navoiyning cheksiz adolati, el-yurtga g‘amxo‘rligi, ulusning hayotini yengillatish, turmushini farovon qilish uchun tinim bilmasligi kabi jihatlar romanda o‘ta ta’sirli aks ettirilgan.

Oybek romandagi har bir obrazning o‘ziga xos jihatini ko‘rsatishga erishgan. Shuning uchun ham asardagi deyarli barcha timsollarning nutqi individuallashtirilgan. Unda tasvirlangan ijodkorlar, navkarlar, sarkardalar, saroy amaldorlari, dehqonlar, kosib-u hunarmandlarning har biri o‘zigagina xos til bilan ta’riflangani asarning o‘qishli bo‘lishini ta’minlagan. Romanni o‘qish mobaynida o‘quvchi ko‘z oldida buyuk Navoiy yashagan davrdagi sharoit, odamlar, ularning o‘ziga xos turmush tarzi, ruhiy olami, quvonch-u tashvishlari gavdalaniadi. Bu hol yozuvchining yuksak tasvir mahoratidan dalolatdir.



O'YLAB KO'RING



TIIAME

- 1. Qaysi adib xotiralarida : “Xayol daryosi keng edi menda. O`qtin-o`qtin o`zimcha mashq qilib, bitta-yarimta she'r yozib ham qo`yardim...” - deb yozgan edi?
- 2. Oybekning 30-yillarda yaratgan dostonlari qaysilar?
- 3. Oybekning qanaqa romanlari bor?
- 4. “Navoiy” romani qachon yozilgan va kimning qalamiga mansub?
- 5. Oybek qalamiga mansub qissalarni bilasizmi?
- 6. Oybekning she`rlaridan yodlaganmisiz?





YOPIQ TEST



1. Oybek qanday oilada tug`ilgan?
2. Oybekning qanday nasriy asarlarini bilasiz?
3. Oybekning qanday tarjima asarlarini bilasiz?
4. Oybek Navoiyga atab yana qanday asarlar yozgan?
5. Oybekning "Navoiy" romanida Mavlono Fasihiddin: "nodir iste'dod, zamonamizning Abu Ali ibn Sinosi bo'lishiga kaminada aslo shubha yo'q", - deb kimni nazarda tutadi?
6. Romanda keltirilishicha, Alisher to'rt yoshlarida mehmonlarga kimning baytini biyron tili bilan o'qib beradi?
7. Asarda "past bo'yli, tiyrak ko'zli, xushmuomala, daftardorlik, hisob-kitob ishlariga juda mohir", deb kim tasvirlangan?
8. Xo'ja Afzal Navoiyga kim bo'lardi?
9. "Davlat arboblari aql vaadolatni shior qilsalar, xalqni parvarish etsalar, hayotning zangini oltinga aylantirmoq mumkin". Ushbu gap asarda kim tomonidan aytildi?



YOPIQ TEST



10. "...belidan yuqorisi kengayib borgan, qaboriq ko‘krakli, keng yag‘rinli, miqti gavdali" kishi kim edi?
11. "...har vaqt ikki qo‘l bilan shatranj o‘ynaydigan" bek kim edi?
12. Majididdin kimni "Zamonaning Aflatuni", - deya Boyqaroga maqtaydi?
13. Mirak Naqqosh Navoiyga kimni "zehni behad baland, qo‘li oltin ekan, san’atda juda tez ilgarilab ketdi", - deya maqtaydi?
14. Mirak Naqqosh Navoiy bilan qaysi ko‘shkning naqshi haqida suhbatlashadi?
15. "G‘oyat bilimli, sardor, ulug‘vor odam. Lekin ovga, qushga shuncha o‘ch ediki, mabodo qushlaridan biri o‘lib qolsa rosa motam tutar, bu o‘lgandan ko‘ra, falon o‘g‘lim o‘lsa bo‘lmasmidi, derdi". Qaysi qahramon ta`riflangan?



Uyga vazifa:



1. Oybek hayoti va ijodini o`qish, kerakli ma`lumotlarni qayd qilish.
2. “Navoiy” romanidan 2-, 10-, 36 –boblarni o`qish).